

“Markaziy Osiyoda zamonaviy ko’p tomonlama munosabatlar” nomli monografiyasi nashr qilindi

O`zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyotida professor M.A.Raximovning “Markaziy Osiyoda zamonaviy ko’p tomonlama munosabatlar” nomli monografiyasi nashr qilindi. Markaziy Osiyo jahon tarixining bir qismi bo’lib, global jarayonlar bilan chambarchas bog’liq hisoblanadi. Dunyoda sodir bo’layotgan turli xil o’zgarishlar davlatlararo, mintaqalararo va sivilizatsiyalar o’rtasidagi munosabatlarning noaniq rivojidan dalolat beradi. Ushbu kitobda Markaziy Osiyo mintaqasida mustaqil davlatlarning tashkil topishi, ularning tashqi siyosatdagi ustuvor yo’nalishlarining shakllanishi, ko’p tomonlama munosabatlar dinamikasi o’rganilgan. Mazkur bosqich Markaziy Osiyoda xalqaro munosabatlar va geosiyosiy transformatsiyada muhim o’zgarishlar bilan tavsiflanadi. O’zbekiston Prezidentining qo’shni davlatlar bilan siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy muzokaralarni kuchaytirishi bo’yicha tutgan faol mintaqaviy yo’li tufayli mintaqada ham xalqaro miqyosda ham ijobiy natijalarga erishilganligi ko’rsatilgan.



Monografiyada milliy, mintaqaviy va global jarayonlarning o’zaro ta’siri va munosabatlari, Markaziy Osiyoning xalqaro munosabatlar tarixidagi geosiyosiy jihatlari, zamonaviy xalqaro munosabatlar va Markaziy Osiyodagi tadqiqotlar shakllanishining rivoji, Markaziy Osiyodagi davlatlararo munosabatlar va integratsiyalashuv jarayonlari, MDHning tashkil topishi, ShHTning institutsional rivojlanishi va uning Yevrosiyoda barqarorlikni ta’minlashdagi tutgan o’rni, OHICHBK (Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari bo’yicha kengash) va turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashlarining holati va muommolari, shuningdek, “Markaziy Osiyo + Yaponiya”, “Markaziy Osiyo – Koreya Respublikasi” va “Markaziy Osiyo + AQSh” formati bo’yicha mintaqadagi ko’p tomonlama munosabatlarning yangi omili sifatida o’rganilgan. Ta’kidlanishicha, Markaziy Osiyoda mavjud muommolar majmuasi barcha aloqalarni, shu jumladan, samarali siyosiy va iqtisodiy hamkorlikdan tashqari madaniy-gumanitar aloqalarni ham kengaytirish va chuqurlashtirishni talab qiladi.

Ushbu kitobda fanlararo yondashuvdan foydalanilgan bo’lib, ish tarixiy materiallar va arxiv hujjatlar, Markaziy Osiyo, Rossiya, Germaniya, AQSh, Xitoy, Fransiya, Yaponiya, Hindiston, Koreya Respublikasi, Yevropa Ittifoqi, ShHT, MDH va boshqalarning davlat va jamoat muassasalari ma’lumotlari asosida tayyorlangan. Tadqiqotni atroflicha o’rganish maqsadida turli mutaxassislar o’rtasida so’rovnomalar o’tkazildi, Markaziy Osiyo mamlakatlari va boshqa davlatlarning rasmiylari hamda xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar vakillari bilan suhbatlar tashkil qilinishi tadqiqot mavzusini yanada kengroq yoritishga imkon berdi.